



BO'LAJAK AKT SOHASI MUTAXASISLARIDA KASBIY-IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Qodirov X.O.

TATU FF dotsenti (Phd)

Tayanch so'zlar: kasbiy insonparvarlik, xarakteri, “pedagogik kompetensiyalar”, pedagogik texnologiyalar, kasbning ijtimoiy, kasbga qiziqish.

Ключевые слова: профессиональный гуманизм, характер, «педагогические компетенции», педагогические технологии, социальная профессия, интерес к профессии.

Key words: professional humanism, character, “pedagogical competencies”, pedagogical tech-nologies, social profession, interest in the profession.

Mamlakatimizning yuridik asosiy hujjatlaridan yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni, “Oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim” to’g’risidagi qonuni, “Asosiy umumiy ta’limning davlat ta’lim standartlari”, shuningdek, Prezident farmonlari qonunchilik bazasini ta’lim tizimining amal qilishi uchun tayyorlaydi. Mazkur hujjatlarning mohiyati davlat ta’lim tizimining rivojlanish strategiyasini belgilashdan iboratdir. O’qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy hujjatlaridan foydalanishning maqsadi qonunda belgilangan talablarga muvofiq ravishda oliy ta’lim muassasasidagi o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to’g’risida”gi qonunida asosiy prinsiplar va qonun-qoidalar belgilangan bo’lib, ularning asosida O’zbekiston ta’limining rivojlanishi qonuniy mustahkamlangan g’oyalarni amalga oshirishning strategiya va taktikasi quriladi.

Mazkur qoidalar bir vaqtda jamiyatga, ta’lim tizimining o’ziga va shaxsga qaratilgan va ta’lim tizimi rivojlanishining “tashqi” ijtimoiy-pedagogik sharoitlarini hamda uning hayot faoliyatining “ichki” pedagogik sharoitlarini ta’minlaydi. Ularga quyidagilar taalluqli: ta’limning insonparvarlik xarakteri,



umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanishi; ta'limning umumfoydalanilishi, ochiqligi, ta'lim iste'molchisini har tomonlama himoyalash.

Kasbiy kompetensiyalar muammosi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyo miqosida juda ham ko'p o'tkazilgandir. "Kompetensiyalar" tushunchasini alohida mualliflar (V.A.Kruteskiy, Ye.G.Balbasova, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) barcha faoliyat turlarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beruvchi, o'quv-tarbiya jarayoni bilan bog'liq shaxsning individual psixik xususiyatlari sifatida ta'riflaydilar.

V.N.Myasiyev, K.K.Platonovlarning ishlarida o'zgacha nuqtai nazar keltirilgan bo'lib, ularda kompetensiyalarni "shaxs sifatleri" belgisi orqali ta'riflaydilar, komponentli tarkibi ro'yxatiga ega bo'lgan dunyoqarashga oid, axloqiy va motivasion shaxs sifatlarini ham kiritadilar.

Bizning tadqiqot ishimizda birinchi va ikkinchi nuqtai nazarlar umumlashtirilgan bo'lib, bu bizga kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni quyidagi tarzda aniqlash imkonini berdi: texnologik oliy ta'lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy kompetensiyalari deganda kasbiy-ijodiy faoliyatning muayyan ko'rinishi talablariga ularning mosligi darajasini tavsiflovchi va uning samaradorligi darajasiga bog'liq bo'lgan, dolzarb nazariy ishlanmalarni hamda innovasion amaliy yechimlarni maqsadga muvofiq va izchil o'zlashtirishga imkon beradigan, pedagogik faoliyatning tanlangan sohasida o'zining noan'anaviy yo'nalishini izlashga undaydigan shaxs sifatleri va xususiyatlarining majmui tushuniladi.

Turli adabiyotlarda ko'pincha uchraydigan, amaliy pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan, maxsus kasbiy kompetensiyalar tushunchasi "pedagogik kompetensiyalar" atamasi bilan ifodalanib, ular ostida "bolalar bilan ishlashga layoqatlilik, bolalarga mehr-muhabbat, ular bilan muloqotdan zavqlanishda ifodalanuvchi shaxs sifatleri" tushunilib, biz tomonimizdan kiritilgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tushunchasiga nisbatan ancha tordir, bu o'z isbotini topdi.

O'rganilayotgan tadqiqot bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlarda biz tadqiqotchilarning turli xil kasbiy-pedagogik hamda ijodiy kompetensiyalarni tasniflashga intilishlariga duch kelamiz. Individullik hamda ijodkorlikning psixologik asoslari yoritilgan.

Qobiliyat – 1. Biror ishga qobillik, yaroqlilik, biror ishni bajara, qila olish xususiyati, layoqati. 2. Iste'dod, talant.

Qobiliyat – mayl, qiziqish, moyillik, sodiqlik, tarafdorlik, layoqat, qobillik, qodirlik. 1. Bilim, ko'nikma, malakalardan farqli o'laroq, shaxsning muayyan

faoliyat yuzasdanlayoqati va uning ish uddalay olishidagi sub'yektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari. 2. Iste'dod, talan.

Kasbiy – kasb-hunarga oid.

Ijodiy – 1. Ijod yaratuvchisi bilan bog'liq bo'lgan. 2. Umuman muayyan sohada ish faoliyati bilan shug'ullanuvchi.

Kasbiy tushuncha muayyan kasbiy ob'yekt, hodisa yoki jarayonlar xususiyatlarining umumiy va muhim belgilarini yaxlit holda ifodalashini ta'kidlagan. Shuningdek, kasbiy tushunchalarni umumiy kasbiy, xususiy kasbiy, aniq kasbiy va mavhum kasbiyga ajratgan. Umumiy kasbiy tushunchalar bir xil nom bilan ataladigan turdosh kasbiy ob'yektlar, hodisalar va jarayonlar majmuini o'z ichiga oladi. Ular ba'zan «kasbiy terminlar» deb ham yuritiladi. Xususiy kasbiy tushunchalar faqat bitta kasbiy ob'yekt, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'ladi va faqat uning o'ziga xos ekanligini ifodalaydi. Xususiy kasbiy tushunchalar boshqa joyda takrorlanmaydi va bunday tushunchalarning har biri undan ajratib bo'lmaydigan muayyan nomga ega bo'ladi. Aniq kasbiy tushunchalar aniq kasbiy ob'yektlar yoki hodisalarni aks ettiradi. Mavhum kasbiy tushunchalar esa fikrlash orqali kasbiy ob'yektlar yoki hodisalarning belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi.

Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o'ziga, qolaversa ota-onasi, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga ko'plab vazifalarni qo'yadi:

o'zi uchun foydali bo'lgan kasbni to'g'ri tanlay olish;

bu kasbni yaxshi egallash va o'z kasbining ustasi bo'lib yetishish;

kasbiga doir ko'plab bilimlarni egallash;

kasbiga ijodiy yondasha olish;

mehnatsevar, o'z ishini tashkil qila oluvchi, kasbiga xos axloqni egallash;

o'zining shogirdlarini yaratishga intilish;

jamiyatga va ota-onasiga yaxshi nomlar bilan maqtov olib kelish;

kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo'lganda o'zining ishini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratish va o'z maktabini qoldirish;

kasbini o'ziga xizmat qiluvchi va kela-jagini ta'minlovchi hunar sifatida shakllantirish.

Bu kabi vazifalar kasb-hunarni egallab borayotgan va yangi bir ko'rinishga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda eng muhim jarayonlar hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan tavsiflanadi: shaxsga, insonga yo'nalganlik;

pedagogik voqeolikni izchil idrok etashi;



fan sohasiga yoʻnalganlik;
pedagogik texnologiyalarni egallash.

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) - kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir. Ayni shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqlanadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yoʻnaltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, deb hisoblash notoʻgʻri boʻlur edi. U yoki bu kasbning egallagani holda dastlabki tibbiy-fiziologik va psixologik koʻrikdan oʻtmagan yigit yoxud qizga tanlagan kasbi zid boʻlishi ham mumkin. Shu boisdan, kasb tanlash boshlangʻich bosqichda ham, shuningdek yakunlovchi bosqichda ham oʻtkazilishi lozim.

Kasbga yaroqlilik – mazkur kishining ushbu kasb boʻyicha mehnat vazifalarini bajarishi uchun yaroqli yoki yaroqsizligini qayot qilishdangina iborat emas, albatta. Kasbga yaroqlilikni boshqa jihatdan ham:

- 1) odam oʻzi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yoʻqligi;
- 2) hayot yoʻlini tanlagan chogʻda u nimalarga amal qilishi lozimligi;
- 3) uni oʻqitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, yaʼni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib gʻoyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham koʻrib chiqish kerak.

Mutaxassis sifatida kamol topish uchun qator masalalarga eʼtibor qaratish zarur:

- kasbni ongli ravishda tanlash;
- kasb egallash uchun aniq maqsad qoʻyish;
- kasb toʻgʻrisidagi tassavurlarning real hayotdan uzoq emasligi;
- egallanadigan kasbning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda amaliy faoliyatda duch kelinadigan qiyinchiliklar haqida tassavur qila bilish;
- kasbiy motivlarni chet olimlar taʼsirida emas, shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantirish;
- kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr-qimmatini yaxshi bilish;
- mutaxassis sifatida kamol topish uzoq vaqtni talab etishini anglash va b.q.

N.A.Muslimov, K.M.Abdullayeva, O.A.Kuysinov, N.S.Gaipova, N.N.Karimova, M.Kodirovlar tomonidan kasb taʼlimi oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi oʻrganilgan boʻlsa, A.I.Avazboyev esa oʻquv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb taʼlimi oʻqituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish masalalari bilan shugʻullanilgan,

B. A. Akbarovning tadqiqotida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik tizimini tahlil qilingan.

A.J.Allambergenov tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy-texnologik kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Haqiqatda ham, bunday yondashuv – aniq va tushunarli modelni qurish – ularni shakllantirish bo'yicha rasional metodik usullarni topish imkonini beradi va bu ayniqsa, jamiyat ta'lim oluvchilarni nafaqat sinf-dars tizimi orqali xabardor qilishga, balki ta'lim oluvchilardagi tabiatan mavjud kompetensiyalar va iqtidorlarni shakllantirish hamda rivojlantirishga imkon beruvchi yangi maktabga, ya'ni ham o'rta, ham oliy maktabga ehtiyojni e'lon qilgan hozirgi davrimizda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham biz amaliyotchilar tomonidan to'plangan tajribadan foydalanib, kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tuzilmasini hosil qiluvchi quyidagi bloklarni ajratish mumkin deb hisobladik:

Birinchi blok – tashkiliy kompetensiyalar. O'qituvchining ta'lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg'ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga yakun yasash kabi ko'nikmalarida ifodalanadi.

Ikkinchi blok – didaktik kompetensiyalar. O'quv materialini, ko'rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o'quv materialini tushunarli, aniq, ifodali, ishonchli va izchil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag'batlantirish, o'quv-bilishga oid faollikni oshirish aniq ko'nikmalarida ifodalanadi.

Uchinchi blok – perseptiv kompetensiyalar, ta'lim oluvchilarning ma'naviy olamlariga kirib borish, ularning emosional holatlarini ob'yektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash ko'nikmasida ifodalanadi.

To'rtinchi blok – kommunikativ kompetensiyalar. Ular o'qituvchining ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish ko'nikmalarida ifodalanadi.

Beshinchi blok – suggestiv kompetensiyalar. Ularning mohiyati ta'lim oluvchilarga emosional-irodaviy ta'sir etishdan iboratdir.

Oltinchi blok – tadqiqotchilik kompetensiyalari, pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va ob'yektiv baholash ko'nikmasida namoyon bo'ladi.

Yettinchi blok – ilmiy-bilishga oid kompetensiyalar, tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish san'atidan tashkil topadi.

Sakkizinchi blok – ijodiy kompetensiyalar, ularning mohiyati yuzaga kelgan muammoning o'z noan'anaviy yechimini ko'ra olish ko'nikmasidan iborat.



V.I.Andreyevning tadqiqotlari ko‘rsatishicha, sakkizinchi blokda kompetensiyalar o‘z ichiga quyidagi komponentlarni kiritadi:

motivasion-ijodiy faollik,

intellektual-mantiqiy va intellektual-evristik kompetensiyalar,

o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalari,

kommunikativ-ijodiy kompetensiyalar va ijodiy faoliyatning tegishli ko‘rinishining mahsuldorlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning dunyoqarashga oid, axloqiy, estetik sifatlari va xususiyatlari.

Yuqorida keltirilgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tuzilmasining sakkizinchi bloki ijodiy holatga kirib borish san‘atini egallash jarayonini mahoratli tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, uni o‘z navbatida uchta bosqichlardan tashkil topgan sifatida tasavvur qilish mumkin:

birinchi bosqich – ijodiy holatga kirib borish ko‘nikmasi tasodifiy sodir bo‘lishi mumkin (u umuman yuzaga kelmasligi ham mumkin);

ikkinchi bosqich – ongli ravishda, ma‘lum darajada sun‘iy qo‘zg‘atiladi;

uchinchi bosqich – ijodiy holat improvizatsiya sifatida, ong osti, oson amalga oshiriladigan harakat sifatidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Mazkur jarayonning texnologiyasini ochib berish – insoniyatni ongli, har bir alohida individ amalga oshirishi mumkin bo‘lgan ijodiy jarayonni tashkil etish kaliti bilan qurollantirishni anglatadi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiya rivojlanishi ularning namoyon bo‘lishi belgilarining shunchaki miqdori o‘shishini emas, balki ularning rivojlanishining bir darajasidan boshqasiga, yanada mukammal bo‘lganiga o‘tishini aks ettiradi. Bulajak AKT mutaxassislarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi (tayyorgarlik, maslahat, yakuniy) kasbiy omillar (ijtimoiy, madaniy, motivasion) va kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni tizimlashtirish asosida takomillashtirish imkonini berdi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 76 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь. ЎРҚ-637-сон
3. Ёшларга онд давлат сиёсати тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Президентининг ЎРҚ-406-сон қонуни. 2016 йил 14 сентябрь.
4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
5. Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сон қарори. 2017 йил 20 апрель.
6. Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизimini такомиллаштириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3271-қарори. 2017 йил 13 сентябрь.



7. Henry Giroux. *Beyond the Spectacle of Terrorism: Global Uncertainty and the Challenge of the New Media*. 2006.
8. Henry Giroux. *Schooling and the Struggle for Public Life*. 1988.
9. Henry Giroux. *Stormy Weather: Katrina and the Politics of Disposability*. 2006.
10. Henry Giroux. *The Abandoned Generation: Democracy Beyond the Culture of Fear*. 2004.
11. Henry Giroux. *The University in Chains: Confronting the Military-Industrial-Academic Complex*. 2007.
12. Isakulova N.J. Kasb ta'limi metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2014. – 200 b.
13. Margaret Mead. *Culture and Commitment*. 1970.
14. Martina Blašková. Influencing Academic Motivation, Responsibility and Creativity. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*. 159 (2014). – P. 415-425.
15. Mendus S. Toleration // *Encyclopedia of Ethics*. – London, 1992. – P. 1251.
16. Mike A. Males. *Kids And Guns*. Common Courage Press, 2001.
17. Mike A. Males. *Smoked: Why Joe Camel Is Still Smiling*. Common Courage Press, 1999.

РЕЗЮМЕ

Asrlar va sivilizatsiyalarning to'qnashuvida insoniyat hayotining barcha sohalari yangi bosqichga kirib borishga tayyorlanib bormoqda. Biz hozirgi vaqtdagi oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi o'zgarishlarning zarurati to'g'risida ta'kidlaymiz. Mazkur tayyorlovdagi asosiy masalalardan biri talabanning pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarni egallaganligi darajasi to'g'risidagi masalalar bo'lib, ularni hal etish kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni, talaba shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog'liqdir.

РЕЗЮМЕ

В столкновении веков и цивилизаций все сферы человеческой жизни готовятся вступить в новый этап. Подчеркиваем необходимость изменений в сфере профессиональной подготовки студентов в современной системе высшего педагогического образования. Одним из главных вопросов в этой подготовке является педагогическая культура студента, уровень владения им педагогическими технологиями, а их решение зависит от формирования и развития профессионально-педагогических компетенций, творческих качеств личности студента.

SUMMARY

In the clash of centuries and civilizations, all spheres of human life are preparing to enter a new stage. We emphasize the need for changes in the field of professional training of students in the modern system of higher pedagogical education. One of the main issues in this preparation is the student's pedagogical culture, his level of proficiency in pedagogical technologies, and their solution depends on the formation and development of professional pedagogical competencies and the creative qualities of the student's personality.